

SamDVMChU “Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi assistenti S.X.Yaxshiyevaning Veterinariya meditsinası (faoliyat turlari bo‘yicha) 3-bosqich 308-guruh talabalari uchun Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi fanidan “Gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotining ishlanmasiga

TAQRIZ

Patologik anatomiya, gava yorish va veterinariya sud ekspertizasining tekshirish usullari har bir kasallikni tahlil qilishda gavdani yorish natijasida organlardagi barcha patologik jarayonlarni aniqlash orqali patologoanatomik kuzatishlar, gistologik, gistokimyoviy va o‘ziga xos boshqa usullarni birlashtiradi.

Amaliy mashg‘ulot matni uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari berilgan. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Amaliy mashg‘ulotning texnalogik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqtini ko‘rsatilgan.

Taqdimotda gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi batafsil yozilgan bo‘lib, talabalar o‘lgan hayvonlar gavdasini yorib ko‘rish vaqtida bayonnomadan ham foydalanishlari mumkin. Gavda yorib ko‘rish usullari va tartiblari o‘lgan hayvonlar gavdalari bo‘yicha bir necha rasmlar berilgan bo‘lib, ularda patologik o‘zgarishlar aniq izohlangan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan.

Assistant S.X. Yaxshiyeva tomonidan tayyorlangan “Gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Samarqand shahar hayvonlar kasallikkleri
tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari
xavfsizligi davlat markazi derektori**

Raimov A.

SamDVMChU “Hayvonlar anatomiyasi, histologiya va patologik anatomiya” kafedrasi assistenti S.X.Yaxshiyevaning Veterinariya meditsinasini (faoliyat turlari bo‘yicha) 3-bosqich 308-guruh talabalari uchun Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi fanidan “Gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotining ishlanmasiga

TAQRIZ

Amaliy mashg‘ulot matni uslubiy tomondan to‘g’ri taqsimot qilingan. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari berilgan. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqtini ko‘rsatilgan.

Taqdimotda Gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi batafsil yozilgan bo‘lib, gavda yorishning o‘rni, asbob-uskunalari va yorib ko‘rish vaqtini, jamoa va shaxsiy xavfsizlik qoidalari, gavdani yo‘qotish, anamnez ma’lumotlari, gavdani tashqi ko‘rinishini o‘rganish, gavdani umumiyligi ko‘rinishini o‘rganish va gavdadagi o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar batafsil yoritib berilgan.

Nazorat savollari, test savollari, vazifa va aqliy hujum savollari berilgan. Taqdimot foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan yakunlangan.

S.X.Yaxshiyeva tomonidan tayyorlangan “Gavda yorib ko‘rish usullari va tartibi” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar anatomiyasi, histologiya
va patologik anatomiya” kafedrasi dotsenti**

M.G.Karimov